



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

2018 yilning yanvar – aprel oylarida QURILISH ISHLARI


Joriy yilning yanvar - aprel oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 13 143,5 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 113,1 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 4 880,7 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 37,1 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan


144,6 %ni tashkil etdi.

Kichik korhona va tshkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 40,4 %i yoki 5 307,0 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,4 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 22,5 % yoki 2 955,8 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 90,4 %ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar – aprel oylarida qurilish ishlari tarkibi, % da



Yanvar-aprel oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 79,9%ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga

nisbatan 3,5 % punktga ko'paydi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda 9,6%ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,1 % punktga kamaydi.

Boshqa pudrat ishlari hissasiga esa 10,5 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,4 % punktga kamaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan % da)




Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 37,5 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 10,0 % punktga ko`paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 35,1 % (1,9 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 27,5 %ni (8,0 % punktga kamayish) tashkil etdi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo`yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 47,2 %ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 8,0 % punktga ko`paydi. Shuningdek,

kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 47,1 % (7,5 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 5,7 %ni (0,5 % punktga ko`payish) tashkil etdi.

Boshqa qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 5,0 % punktga kamaydi va 25,6 %ni tashkil etdi. Qolgan 74,4 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 5,0 % punktga ko`paydi.


**2018 yil yanvar-aprel oylarida faoliyat turlari
bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan %da)**



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining hududlar bo'yicha tarkibida joriy davrda Navoiy viloyati yetakchilik qildi. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlarining 35,7 %i yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan. Bu

ko'rsatkich bo'yicha keying yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida kuzatildi – 31,6 %. Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar tomonidan ushbu hududda 42,7 %, norasmiy sektor tomonidan esa 21,6 % qurilish ishlari bajarildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari




Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Jizzax viloyatida kuzatildi 1,4 %. Bu hududda qurilish ishlarining asosiy qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, mazkur hududdagi jami qurilish ishlarining 62,1 %ini tshkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan esa

36,5 % qurilish ishlari bajarildi.

Sirdaryo viloyatida kichik tashkilotlar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi eng katta bo`ldi – 78,5 %. Mazkur hududda yirik tashkilotlarning ulushi 3,5 % va norasmiy sektorning ulushi 18,0 %ni tashkil etdi.

Hududlarda qurilish ishlarining o`shish suratlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan %da)




Qurilish ishlarining hududlar kesimida eng yuqori o`shish surati Navoiy hamda Toshkent viloyatlarida kuzatildi. Navoiy viloyatida "Auminso-Amantoy konlari" da oltin-ma'danli konlarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha konlarni qurish (I-II bosqich), Amudaryo-Zarafshon suv yo`lida nasos stansiyasini rekonstruksiya qilish kabi loyihalarning amalga oshirilayotgani tufayli ushbu hududda o`shish suratining 127,5 %

bo`lishini ta`minladi.

Toshkent viloyatida yakka tartibda turar joy qurilishining jadal borishi tufayli o`shish surati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 112,0 % bo`lishi ta`minlandi.

Toshkent shahridagi yuqori o`shish surati, yani 109,6 % metro liniyalarining qurilishi, Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi va boshqa loyihalarning bajarilishi natijasidir.

Hududlar kesimida qurilish ishlari (mlrd.so`m)



O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(0371) 230-80-56